

ASALARICHILIKNING TABIAT VA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Kelsinova Jayrona Nasirjon qizi

Ne'matova Marhabo Habibullo qizi

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti tabiiy fanlar fakulteti biologiya
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu tezisda asalarichilikning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati, rivojlanishi, asalari suti va asalarichilik uyushmasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Asalarichilik, o'simliklar, chetdan changlanish, gipotrofiya, gipotoniya, ateroskleroz, asalari suti.*

Asalarichilik – qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri, asalarilarni asal, mum va boshqa mahsulotlar olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligini oshirish uchun ularni changlatish maqsadida foydalaniladi. Asalarichilik miloddan avvalgi 10-5 ming yilliklarda ham mavjud bo'lgan. 1814-yilda rus asalarichisi P.I. Prokopovich romli asalari qutisini, 1865-yilda esa chex asalarichisi F. Grushka asal ajratishni kashf etishi bilan, ko'pgina mamlakatlarda asalarichilik serdaromad tarmoqqa aylanadi. XX asrning 20-yillaridan maxsus asalarichilik xo'jaliklari paydo bo'ldi. Asalarichilik yer yuzining barcha qit'alarida tarqalgan. BMT ma'lumotlariga qaraganda 1970-yillar boshida jahonda 40 mln.ga yaqin asalari uyalari mavjud bo'lgan. Jahon mamlakatlarida asalarichilik asosan uch yo'nalishda rivojlanmoqda; asal olish, ekinlarni changlatish, boshqa xo'jaliklarga tarqatish uchun eng yaxshi asalari zotlarini yetishtirish va asalari oilalarini ko'paytirish. O'zbekistonda asalarichilik mahsulotlari qadimdan oziq-ovqat va dori-darmon sifatida ma'lum bo'lsada asalarilarni qutilarda boqish XIX asrning 2-yarmida O'zbekistonda xo'jalik belgilari bilan farq qiladigan asalarilar populyatsiyalari vujudga keldi.

Buyuk o'zbek olimi Abu Ali ibn Sino O'rta Osiyo xalqlarining ajoyib madaniy yodgorliklaridan biri bo'lgan "Tib qonunlari" kitobida asalarilar, asal va mum haqida ko'p yozgan. Misol uchun ikkinchi kitobida "oddiy dori-darmonlar va vositalari to'g'risida" gi bo'limida Abu Ali ibn Sino "Asal gullarga va asalarilar to'playdigan boshqa o'simliklarga tushadigan shudring, ko'zdan yashirinadi, asalarilarni xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi va asalarilar uni oziq-ovqat hamda saqlash uchun yeg'ishadi, asalning o'tkir va zaharli turi mavjud. Eng yaxshi asal bahor va yozgisidir" deb keltirib o'tgan. Bundan tashqari asalarining foydali va serdaromad tomonlari shundaki, ular o'simlik gullarini chetdan

changlatish yo'li bilan ekinlar hosildorligini 10-60 % gacha oshirishga sabab bo'ladi. Respublikamizda sotsial va iqtisodiy rivojlanishning 2026-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida ham asalarichilikning jadal usulda rivojlantirish mo'ljallangan. Asalarichilik qishloq xo'jaligini tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmog'I bo'lib, uning o'zi ayni paytda qator mustaqil ilmiy bo'limlarga bo'linganligi e'tiborga loyiq.

Prezidentimizning 2017-yil 16-oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohani rivojlantirishning ustuvor vazifalarini belgilab olishda dasturlar amalga oshmoqda. Unga ko'ra yurtimizda faoliyat yuritayotgan asalarichilarni birlashtirish, o'zaro tajriba almashishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etildi. Uyushmaga a'zo xo'jaliklar 2023-yilgacha sohada qo'llaniladigan uskunalari, asalari uyalarini tashish uchun maxsus transport vositalari, asalari kasalliklari va zararkurandalariga qarshi qo'llaniladigan veterinariya dori vositalari, preparatlar, mumparda va mum mahsulotlar uchun bojxona to'lovlari to'lamaydi.

Asalari suti biologik stimulyator xususiyatiga ega, gipotrofiya va gipotoniya kasalliklarini, sirkkasidan oziq-ovqat sanoatida turli tuzlamalar tayyorlashda foydalaniladi. Asalari suti ko'plab tirik organizmlar o'sishini tezlashtiradi va vaznini oshiradi. Qand, globulin, eritrotsitlar va glukoza miqdorini ko'paytirib, xolesterin va neyetrofillar miqdorini kamaytiradi, shu orqali ateroskleroz kasalliklarini oldini oladi va davolaydi. Miyadagi qon harakatini yaxshilab, qondagi askorbin kislotasini kamaytiradi. Organizmning reproduktiv imkoniyatlarini yaxshilaydi. Sohada ari sutini ishlab chiqarish uchun asalari oilalaridan tarbiyachi oilalarni tuzish va 18-24 soatli qurtlarni tarbiyachi oilalarga berib, uch kundan keyin payvand qilingan qurtlarni olib tashlab, sutni jamg'arib olib konservatsiya qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda asalarichilik qishloq xo'jaligini serdaromad sohalaridan biri hisoblanadi. Asalarichilik mahsulotlarini ko'paytirishga qaratilgan jarayonlarga mahalliy turdagi asalarilar alohida ahamiyatga egadir. O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishda asalari oilalarini zamonaviy texnologiya asosida ekinzorlarda boqib, asalarichilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish uchun qulay imkoniyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. B.A.Qaxramonov, A.I.Isamuhammedov, U.SH.Ballasov, S.SH.Isamuhammedov, O.S.To'rayev. "Asalarichilik".
2. G.K.Dubovskiy, A.M.Ummatov. Zoologiyadan o'quv qo'llanma.
3. O.S.To'raev. Asalari oilasini boqish texnologiyasi.
4. Isamuhamedov, A.I. Nikadamboev, X.K. Asalarichilikni rivojlantirish asoslari.
5. Махмудов, А. В. О. (2012). Фототерапия синим светом угревой болезни с учетом изучения антимикробного пептида LL-37 и ультразвукового дермасканирования кожи (Doctoral dissertation, Первый моск. гос. мед. ун-т. им. ИМ Сеченова).
6. Махмудов, А. В. (2020). Перспективы создания Global Allium Garden Tashkent Center в Ташкентском ботаническом саду. Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН, (15), 203-207.
7. Махмудов, В. М. (1986). БИОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДИКОРАСТУЩИХ МНОГОЛЕТНИХ ЗЛАКОВ В УСЛОВИЯХ КУЛЬТУРЫ. Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН, 138.
8. Isagaliev, M., & Makhmudov, V. (2020). CENOPOPULATION AND BIOGEOCHEMICAL FEATURES OF CAPPARIS SPINOSA L. IN THE CONDITIONS OF STONY-PEBBLE LIGHT SEROZEMS OF THE FERGHANA VALLEY. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(3), 184-191.
9. Махмудов, А. В., & Махмудов, В. М. (2018). Онтогенез *Crocus alatavicus* Regel et Semen и *C. korolkovii* Regel & maw в условиях интродукции. Научные труды Чебоксарского филиала главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН, (10), 122-125.
10. Махмудов, А. В. (2017). ИТОГИ ИНТРОДУКЦИИ ВИДОВ РОДА *CROCUS* L. В ТАШКЕНТСКОМ БОТАНИЧЕСКОМ САДУ АН УЗБЕКИСТАНА. Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН, (9), 144-149.
11. Олисова, О. Ю., & Махмудов, А. В. (2010). К вопросу о наружной терапии угревой болезни. Дерматология. Приложение к журналу *Consilium Medicum*, (3), 20-22.
12. Давидов, М., Хамидов, Г., & Махмудов, В. (2013). БИОЛОГИЯ ЦВЕТЕНИЯ И ПЛОДОНОШЕНИЯ НЕКОТОРЫХ СОРТОВ АРБУЗА. In

Биоразнообразии и рациональное использование природных ресурсов (pp. 36-38).

13. Махмудов, В. М. (2018). УРОЖАЙНОСТЬ ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ ЗЛАКОВ В КУЛЬТУРЕ НА АДЫРАХ УЗБЕКИСТАНА. Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН, (11), 72-75.

14. Махмудов, А. В. (2019). ИЗУЧЕНИЕ ОСНОВНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ ЗААМИНСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ПАРКА. Научные труды Чебоксарского филиала Главного ботанического сада им. НВ Цицина РАН, (12), 31-33.

15. Davidov, M. A. (2020). Biology of flowering and fruiting of *Amaranthus cruentis* L. and *A. Hybridus* L. under conditions of Uzbekistan.-2000.

16. Хамидов, Г. Х., Давидов, М. А., Акбарова, М. Х., & Холикулов, М. Р. (2019). Ўзбекистон асалли усимликлари ва асаларичилик истикболлари. Фаргона: Poligraf Super Servis.

17. Sak, D., Turan, M., Mammadov, T., Mammadov, R., Ili, P., & Davidov, M. (2022). ANTIOXIDANT BIOCHEMICAL AND LARVICIDAL ACTIVITY OF *Cyclamen hederifolium* EXTRACTS.

18. Давидов, М. А., & Исакова, Н. Ш. Қ. (2021). *Dorema Microcarpum* Korov.(Ариасеае) онтогенези. *Science and Education*, 2(3), 58-63.

19. Давидов, М. А. (2020). Биология цветения и плодоношения *Amaranthus cruentis* L. и *A. Hybridus* L. в условиях Узбекистана.–2000.

20. Ҳамидов, Ғ. Ҳ., Акбарова, М. Ҳ., & Давидов, М. А. (2019). Ҳолиқулов МР Ўзбекистон асалли ўсимликлари ва асаларичиликнинг ривожланиш истикболлари.

21. Давидов, М. А., & Турсунов, Ж. И. (2021). МАКРО-И МИКРОЭЛЕМЕНТНЫЙ СОСТАВ *DOREMA MICROCARPUKOROV*. *Universum: химия и биология*, (10-1 (88)), 76-78.

22. Davidov, M. A., & Xoshimova, S. U. (2023). О ‘SIMLIKLARNI KLONAL MIKROKO ‘PAYTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 450-452.

23. Davidov, M. A., & Xoshimova, S. U. (2023). О ‘SIMLIKLARNI IN VITRO USULIDA VEGETATIV KO ‘PAYTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 453-454.

24. Davidov, M. A., & Akbarova, I. G. (2023). TABIIY DORIVOR O‘SIMLIKLARNING SHIFOBAXSHLIGINI VITAMINLAR VA BIOLOGIK FAOL MODDALARGA BOG‘LIQLIGI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 479-482.

25. Nurmatov, A. N. (2022). SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH VA KONSERVALASH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 185-187.

26. Ахмедова, Д. М., & Давидов, М. А. (2016). ГЕНОМНЫЙ АНАЛИЗ АЛЛОГЕКСАПЛОИДНЫХ ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-2), 14-19.